



UDK:32.019.51

Sharof AGABAYEV,
"O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti" dotsenti v.b., PhD
E-mail: sharofagabaev@gmail.com

TDIU dotsenti, s.f.d I.Masharipov taqrizi asosida

YOUTH – THE BASIS FOR BUILDING CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN

Annotation

This scientific article analyzes the socio-political reforms being implemented in Uzbekistan. It is scientifically revealed that youth is a socio-biological group with a special social status in society and strategic potential of a sovereign state; democratic development of the country is determined by the position and socio-political activity of young people in social and political life.

Key words: Youth, civil society, democracy, development, globalization, employment, national identity, national values, integration, tolerance.

МОЛОДЕЖЬ – ОСНОВА ПОСТРОЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной научной статье проанализированы осуществляемые в Узбекистане общественно-политические реформы. При этом научно выявлено, что молодежь является социально-биологической группой с особым социальным статусом в обществе и стратегическим потенциалом суверенного государства, демократическое развитие страны определяется позицией и общественно-политической активностью молодежи в общественно-политической жизни.

Ключевые слова: Молодежь, гражданское общество, демократия, развитие, глобализация, занятость, национальная идентичность, национальные ценности, интеграция, толерантность.

YOSHLAR – O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHNING ASOSIY TAYANCHI

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar tahlil qilingan. Bunda, yoshlar jamiyatda alohida sotsial statusga ega bo'lgan ijtimoiy-biologik guruh hamda suveren davlatning strategik salohiyati ekanligi, mamlakatning demokratik taraqqiyoti yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi pozitsiyasi va ijtimoiy-siyosiy faolligi bilan belgilanishi ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, fuqarolik jamiyat, demokratiya, taraqqiyot, globallashuv, bandlik, milliy o'zlik, milliy qadriyat, integratsiya, tolerantlik.

Kirish. Yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sosial-iqtisodiy islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyati rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Harakatlar strategiyasi birinchi yo'nalishining mazmun-mohiyatida davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni yanada rivojlantirish prinsiplari ilgari suriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga ko'ra: «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi»[1]. Shuningdek, davlatimiz rahbarining «..bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo'yicha vijdonan yashashga tayyor bo'lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg'a qadam bosmog'imiz kerak»[2] degan fikrlari ham O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi. Kuchli fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog'liq siyosiy modernizatsiya jarayonlarida esa mamlakatimiz, eng avvalo, yoshlar qatlamiga tayanadi.

Ma'lumki, turli ilmiy adabiyotlarda yoshlar kategoriyasiga turlicha yondashuv asosida ta'rif beriladi. Yoshlar – bu, avvalo, jamiyatda alohida sotsial statusiga ega bo'lgan ijtimoiy-biologik guruh hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, yoshlar qatlami, deganda jamiyat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanuvchi, alohida imtiyozlarga ega, lekin ayrim ijtimoiy munosabatlarda faol harakati cheklangan insonlar sosiumi tushuniladi[3]. Yoshlar – bu har bir suveren davlatning strategik salohiyati hisoblanadi. Mamlakatning demokratik taraqqiyoti, xususan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi pozitsiyasi, ularning ertangi kunga ishonchi va ijtimoiy faolligi bilan o'lchanadi. Shu va boshqa omillar sabab bugungi kunda yoshlar masalasi va yoshlar siyosati davlatning asosiy faoliyatiga aylanib ulgurdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Horijiy ilmiy manbalarda «yoshlar» kategoriyasining turli-tuman talqinlari mavjud. Ba'zi ta'riflarda ijtimoiy jihatga alohida e'tibor qaratsila, boshqa ta'riflarda ushbu tushunchaning tabiiy jihatiga urg'u beriladi. Jumladan, I.S.Kon yoshlar – bu yosh tavsiflarining umumiyliigi, ijtimoiy holatning o'ziga xosligiga asoslangan va u yoki bu ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar asosida ajratib olinadigan ijtimoiy-demografik guruhdir, deb hisoblaydi. Qolaversa, uning ta'kidlashicha «Hayotiy davrning muayyan bosqichi sifatida yoshlar biologik jihatdan universaldir, biroq ularning aniq yosh doiralari, u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy maqom va ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega va ijtimoiy qatlam, madaniyat va

ushbu jamiyatga xos bo'lgan sosializasiyaning qonuniyligiga bog'liq»[4]. Mazkur ta'rif yoshlar sosiologiyasida asosiy ta'rifga aylandi, chunki demografik jarayonda mehnatga yaroqli aholining yosh tuzilmasi bilan bog'liq bo'lgandagina yoshlarga izoh beriladi.

Shuningdek, yoshlar tafakkurida shakllangan qadriyatlar tizimi nafaqat shaxsga, balki butun jamiyatga ta'sir qiluvchi ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu joyda esa tolerantlik omilining kuchliligi demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Biroz vaqt o'tib I.S.Kon va S.N.Ikonnikova[5]lar yoshlik va yoshlar tushunchalarini ajratishga urinib ko'rishdi. Keyingisini anglatish uchun ijtimoiy-sinfy tabaqalanish tuzilmasidagi tushuntirish komponentlari singari demografik yosh belgilari qabul qilindi. A.I.Gromov, S.N.Ikonnikova va V.T.Lisovskiylar ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida uning holati va o'rtidan kelib chiqqan holda zamonaviy jamiyat yoshlariga umumiy ijtimoiy ta'rif beradilar. Ularning nuqtai nazarlariga muvofiq, yoshlarning ijtimoiy tavsifi «ochiq-oshkoralik» va «o'zgaruvchanlik»dan, tanlovning muayyan erkinligidan va o'z zimmasiga ijtimoiy nuqtai nazarlar va rollarni olishdan iborat»[6], ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda, har bir mamlakatda yoshlar jamoat tashkilotlari tizimining rivojlanishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim belgisi sifatida qaraladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining keng tarmog'i, eng avvalo, davlat bilan yoshlar qatlami o'rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur tashkilotlar jamiyatda o'zaro hamkorlik, ma'naviy taraqqiyot, diniy va milliy bag'rikenglik kabi omillarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatida yoshlarning faoliyati turli xil ko'rinishda: volontyorlik uyushmalarida, jamoat tashkilotlarida, sport klublarida, madaniy markazlarda, nodavlat notijorat tashkilotlarida ishtirok etishlari orqali hamda ijtimoiy-siyosiy faolliklari bilan namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tizimi tarkibiga kiruvchi yoshlar tashkilotlari – bu, xususan, shunday tuzilmadirki, unda yoshlar o'z qiziqishlarini namoyon qilishlari, ularni rivojlantirish uchun faoliyat olib boradi hamda yoshlar orasida tolerantlik madaniyatini mustahkamlashda quyidagi vazifalarni bajaradigan birlashmalarga ega:

- davlat yoki siyosiy partiyalar tomonidan homiylik qilib tuzilgan yoshlar tashkilotlari;
- mustaqil holda tuzilgan nodavlat yoshlar tashkilotlari;
- madaniy, diniy va sport-sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan uyushmalar;
- xalqaro yoshlar tashkiloti va harakatlari[7].

Tahlil va natijalar. Bugungi kunga kelib, dunyo bo'yicha yoshlarning jamoat tashkilotlari soni tobora o'sib bormoqda. Bu sohada rivojlangan demokratik davlatlarning tarixiy tajribasidan ma'lumki, ular ijtimoiy masalalar borasida biror bir maqsadni ko'zlab faoliyat olib borsa, eng avvalo, uning ilmiy tahlillariga, mutaxassislarning tavsiyalariga tayanib ish ko'rishadi va buning asosida ijobiy natijalarga erishishadi. Masalada, AQSh yoshlar tashkilotlari faoliyatini tahlil qilganda, dastlabki yoshlar tashkilotlari AQShda XIX asrning 30-yillarida shakllana boshlagani ma'lum bo'ladi. Birinchi yoshlar tashkilotlaridan – Yosh erkak xristianlik assosiasiyasi (YMCA –Young Mens Christian Association) bugungi kungacha o'z faoliyatini davom ettirib kelmoqda[8]. Bu tashkilotning asosiy maqsadi sifatida: ijtimoiy, jismoniy va ta'lim sohasida yoshlarga yordam berish, muammolarini echishda ko'maklashish va bu sohalarida ularni ishtirokini

faollashtirish hamda yoshlar o'rtasida tolerantlik madaniyatini shakllantirish, e'tirof etiladi.

Umuman olganda, AQSh yoshlar tashkilotlari faoliyatlarini ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin:

Skautlar, yashash joylaridagi klublar va diniy yo'nalishda faoliyat olib borayotgan yoshlar tashkilotlari; sport klublari va yoshlarning o'z qiziqishlari bo'yicha tashkil qilingan ijtimoiy harakatlar.

Ikkala guruhda ham tashkil qilingan yoshlar tashkilotlarining o'z nizomi va dasturlari mavjud bo'lib, ular yoshlarning jismoniy va aqliy qobiliyatini mustahkamlashda va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Mazkur yoshlar tashkilotlarining asosiy vazifalaridan yana biri – yordamga muhtoj nogiron insonlarga hamda qariyalarga g'amxo'rlik qilishdan iborat. Shuning asnosida ular jamiyatda o'zaro hurmat, hamdardlik, mustahkam do'stona aloqalar kabi bag'rikenglik tamoyillarini ham mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

XX asrning oxiriga kelib AQSh yoshlar tashkilotlari o'z faoliyatlarini bilan davr yoshlarining talabini to'laqonli ravishda qoniqtira olmadi. Shuning uchun ko'pgina yoshlar tashkilotlari o'z dastur, nizomlarini yangidan tuzib chiqishga va faoliyatini takomillashtirishga harakat qilishdi. Bugungi kunga kelib AQSh yoshlar tashkilotlari avlodni avlod bilan bog'lash, oilada, maktabda va, asosan, jamiyatda yoshlarning muammolarini hal qilish uchun faoliyat ko'rsatmoqda, ya'ni ular o'ziga xos «ijtimoiy ko'pri» vasifasini bajarmoqda.

Ayni paytda yoshlar tashkilotlari yoshlarga Amerika jamiyatining bo'lajak namunaviy fuqarosi sifatidagi vazifasi va burchlarini o'rgata bormoqda. Bu borada davlat va nodavlat yoshlar tashkilotlari yosh avlod tarbiyasi masalasiga umummilliy vazifa sifatida qarab, tashabbus ko'rsatishmoqda. Ular yoshlarni vatan, millat uchun foydali ishlar qilishga, fidoyi inson, o'zgalarga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lishga hamda hayotda mustahkam irodali, jo'shqin, tirishqoq bo'lib o'sishga chaqiradilar.

Shuningdek, bugungi kunda rivojlangan G'arb jamiyatlarida gorizontol munosabatlarning yorqin namunalarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, AQShda 1 milliondan ortiq turli-tuman nodavlat uyushmalar, birlashmalar va jamiyatlar faoliyat olib boradi. Ular, o'z faoliyatiga va qiziqishiga qarab uyushgan, mutlaqo tenglik prinsiplariga asoslangan tashabbuskor guruh sifatida shakllangan. Shu o'rinda «Kitob sevuvchilar jamiyati», «Baliqchilar uyushmasi», «Motobaykerlar birlashmasi», «Antiglobalistlar ittifoqi» singari turli nomdagi minglab uyushmalarni sanab o'tishimiz mumkin. Mazkur ijtimoiy guruhlar o'z faoliyatida umumiy qabul qilgan qonun, qoida va qadriyatlar asosida faoliyat olib borishadi. Ular ochiq turdagi birlashmalar bo'lib, uning a'zolari ohlagan paytda guruhni tark etishi yoki qabul qilinishi mumkin. Eng asosiysi, guruhda, fuqarolik jamiyati uchun xos bo'lgan, gorizontol ijtimoiy munosabatlar ustuvorlik kasb etadi. Bunday ijtimoiy uyushmalar tashabbuskor guruh sifatida faoliyat olib borib, alohida davlat ro'yxatidan o'tishi yoki bo'lmasa boshqa byurokratik tizimda harakat qilishiga zarurat qolmaydi [9].

Bu borada 80-yillarga kelib ko'pgina Evropa mamlakatlari ham demokratik jamiyat shakllanishi jarayonida yoshlarga katta e'tibor berila boshlandi. Yoshlar siyosiy sohalarida qarorlar qabul qilish jarayoniga ham jalb etildi. Yoshlarni erkin dunyoqarashga va o'z fikrlarini bayon qilishlariga keng yo'l ochib berildi. Mintaqaning ba'zi davlatlarida buning uchun esa milliy yoshlar ittifoqlari tuzildi. Xususan, 1995 yilda Vengriya hukumati tomonidan «Mobitalis» yoshlar tashkiloti tuzilgan[10]. Bu tashkilotning maqsadi: Evropa Ittifoqining «Yoshlar Evropa uchun» dasturini barcha mintaqa davlatlarida amalga oshirish va Evropadagi

hamda dunyoning boshqa davlatlardagi yoshlar tashkilotlari bilan ko'p tomonlama hamkorlikni o'rnatishdan iboratdir.

Fandagi ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayni paytda yoshlarga yagona bir xil guruh deb qaramasdan, balki yakka va ixcham ijtimoiy guruhlarning sifatida yondashish kerakligi e'tirof etiladi. Shuning uchun bu borada davlatlarning markaziy idoralari yoshlarni boshqarish ishlarining bir qismini o'zini-o'zi boshqaradigan mahalliy organlarga topshira bordi hamda bu ishlarga yoshlar tashkilotlari (NNT) ham jalb etildi.

Evropa mamlakatlarida yoshlarga oid davlat siyosatining barcha ko'rsatkichlariga qarab 4 ta asosiy yo'nalishga bo'lishimiz mumkin:

- jamiyatdagi ijtimoiy va sog'lom turmush tarziga bo'ladigan xavf-xatarni oldini olish;
- yoshlar bandligini ta'minlash;
- yoshlarni milliy o'zlikka va milliy qadriyatlarini hurmat qilishga o'rgatish;

- yoshlarni jamiyatdagi boshqa etnik guruhlarning bilan integratsiyalashishga hamda tolerantlikka chaqirishdan iborat.

Bugungi kunda, Evropa mamlakatlarida faoliyat olib borayotgan yoshlarning boyskaut va gyorlskaut harakatlari keng tarqalgan[11]. O'zi boyskautizm – G'arbiy Evropa mamlakatlarida o'smir yoshlarni bo'sh vaqtdan unumli foydalanishi uchun keng tarqalgan tarbiya tizimidir. Bu harakatning maqsadi yosh avlodni o'z vatani, mamlakat va uning siyosiy tizimiga sadoqat ruhida tarbiyalash, hamda yoshlarga vatan, jamiyat uchun foydali ishlar qilishga, komil inson bo'lishga chorlashdan iborat. Shuningdek, u yoshlarda mustahkam irodani va jo'shqinlikni rag'batlantiradi hamda hayot sinovlariga chidamli bo'lishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, BMTning tashabbusi bilan 1985 yildan buyon 12 avgust «Xalqaro Yoshlar kuni» sifatida nishonlab kelinadi. Shunga muvofiq BMTning Bosh Assambleyasi butun dunyoda yoshlarning sharoitini, turmushini yaxshilashga qaratilgan Umumjahon yoshlar dasturini joriy etgan. Bosh Assambleya tomonidan joriy etilgan dasturda asosan ta'lim, bandlikni ta'minlash, qashshoqlik va ochlik bilan kurash, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza etish, giyovandlikka qarshi kurash, voyaga etmagan shaxslar orasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash, sog'lomlashtirish va ko'ngilochar tadbirlar, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini, globalizatsiya, axborot va aloqa texnologiyalari, OITS/OIVga qarshi kurash, yoshlar va qurolli to'qnashuvlar hamda avlodlararo munosabatlar kabi masalalar qamrab olingan[12].

Hozirgi kunda Umumjahon yoshlar dasturining yoshlarning rivojlanishi, komillikka etishidagi o'rni nihoyatda kattadir. Dastur yoshlar bilan bog'liq turli masalalarni echishda dunyo mamlakatlarining salohiyatini oshirish hamda yoshlarning jamiyat hayotida to'laqonli va faol ishtirok etishi uchun keng ko'lamdagi imkoniyat va sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

BMTning yoshlar dasturi boshqarmasi tashkilotning yoshlar masalalari bo'yicha asosiy organi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur dastur doirasida BMT davlatlararo masalalarda muhim siyosiy qarorlarni qabul qilish, tadqiqotlar olib borish, yoshlar orasidagi hamkorlikni mustahkamlash kabi keng ko'lamli ishlarni amalga oshiradi. Har yili 12 avgust kuni butun dunyo bo'ylab yoshlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi tutgan o'rni haqidagi tushunchalarni keng targ'ib qilishga qaratilgan bir qator xalqaro miqyosdagi tadbirlar uyushtiriladi. Ushbu tadbirlar turli mavzulardagi konferensiyalarni o'tkazishdan tortib, katta miqyosdagi konsertlarni tashkil etish kabi ishlardan iborat.

2015-yilda esa 12-avgust «Xalqaro Yoshlar kuni» munosabati bilan nishonlangan tadbirning mavzusi «Yoshlarning fuqarolik jamiyat hayotidagi ishtiroki»[13], deb

nomlandi. Ushbu tadbirda inson taraqqiyoti konsepsiyasini to'liq amalga oshirish uchun yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi nihoyatda muhim ekanligi ta'kidlanadi. Eng achinarlisi, ko'p holatlarda yoshlar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ishtirok etishi uchun yaratilgan imkoniyatlar nihoyatda kamligi, ba'zida esa bunday imkoniyatlar umuman mavjud emasligidadir.

Keyingi yillarda bir qator mamlakatlarda hukumat miqyosida, BMT agentliklari, mintaqaviy va ko'p tomonlama tashkilotlar, fuqarolik jamiyat institutlari, yoshlar tashkilotlari va tadqiqot institutlari tomonidan yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, maxsus milliy dasturlar amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yoshlar tashkilotlarining ahamiyatini e'tirof etib shuni ta'kidlash lozimki, yoshlar tashkilotlarining mavqei va rolini oshirib borishda xorij tajribasini o'rgangan holda, milliy madaniyatimiz va jamiyatimiz mental xususiyatlariga xos bo'lgan yoshlar tashkilotlarini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: «Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz»[14], degan fikrlari ham buni asoslab beradi.

Bugungi globalashuv jarayonida, O'zbekistonda ham kuchli fuqarolik jamiyati va demokratik islohotlar jarayonida yoshlar masalasi ustuvor vazifa sifatida talqin etiladi. Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirilishi jarayonida yoshlarga o'ziga xos o'rin ajratilgan. Ma'lumki, jamiyatimizning ko'pchilik qismini aynan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar qatlami tashkil etadi. 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni va boshqa bir qancha huquqiy normalarda aynan yoshlarga qaratilgan davlat va jamiyat siyosatini ishlab chiqish hamda ularni jamiyat ijtimoiy modernizatsiyasiga jalb qilish bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilab olingan.

Shuningdek, 2018-yil 4-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ham turli NNT va jamoat tashkilotlarini yoshlar bilan ishlash sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish borasida huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. «Istiqlol yillarida yurtimizda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy muhiti yuksalmoqda, – deya ta'kidlaydi akademik A.Saidov. – Bu ijobiy jarayonlar kishiga mamnuniyat bag'ishlaydi. Nega deganda, har birimiz demokratiya ne'matlari iste'molchisi bo'lish bilan cheklanib qolmasdan, balki shu ne'matlarni yaratuvchi faol shaxslar sifatida o'zligimizni namoyon etishimiz bugungi davr talabidir»[15]. Shunga qaramay, farmonda bu boradagi bir qancha kamchiliklar izohlanib, jumladan, davlat organlari va NNT o'rtasida fuqarolarning keng ko'lamli ijtimoiy muammolarini hal qilishga, ayniqsa, yoshlarning tashabbuslari va zamonaviy g'oyalarini haqiqatda ilgari surishga qaratilgan hamkorlikning samarali mexanizmiga aylana olmaganini tanqid qilinadi.

Shuningdek, so'nggi yillarda yoshlarimizni ilmiy faoliyatga jalb etish borasida salmoqli amaliy ishlar olib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishda akademik ilm-fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni rivojlantirish, ilg'or ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etish, joylarda ilmiy maktablarni mustahkamlash hamda tegishli hududiy va tarmoq

muammolarini hal qilishda ularning faol ishtirokini ta'minlash ishlari ham mamlakatimiz rahbarining doimiy e'tiborida turibdi. Iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, xalqaro miqyosda mamlakat ilm-fani nufuzini oshirish borasida ulkan natijalarga erishilmoqda. Aynan shu kabi muhim omillar bugungi globallashuv jarayonida olib borilayotgan keng islohotlarning fuqarolik jamiyati rivojlanishida yoshlarning nufuzi va salohiyatini namoyon etmoqda, shu bilan birga, mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatining amaliy ifodasini ham ko'rsatib bermoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mazkur strategik vazifalarni amalga oshirishda bir qancha omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Birinchidan, fuqarolarimizni, ayniqsa, yoshlarni, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy yangilanish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, Harakatlar strategiyasi negizida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mohiyatini, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ahamiyatini fuqarolarimizga etkazish va ma'naviy targ'ibot faoliyatini kuchaytirish, ikkinchidan, yurtimizda tom

ma'nodagi plyuralistik muhitni yaratish maqsadida turli qarash va fikrlarga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga, ularda yagona g'oya – «Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi» maqsadiga erishishlariga ko'maklashadi, uchinchidan, yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tizimini davlat talabiga mos ravishda tubdan isloh qilish, uning huquqiy va institusional asoslarini mustahkamlash, har tomonlama bilimli, dono va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodni shakllantirishda ta'lim va tarbiya uzviyligiga erishish, to'rtinchidan, ota-bobolarimiz va bizning muqaddas e'tiqodimiz bo'lmish islom dinining bugungi hayotimizdagi o'rni va ta'sirini, yoshlarimizni ruhan pok, iymoni butun, irodasini baquvvat etishdagi, odamiylik fazilatlarini uyg'unlashtirishdagi hissasini va mohiyatini keng jamoatchilikka kengroq tushuntirish, beshinchidan, ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida ularning milliy va diniy mansubligidan qat'i nazar, ularda hamjihatlik va birdamlik tuyg'ularini kuchaytirish, tolerantlik madaniyatini yanada rivojlantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 8-bob, 32-moddasi. –T., 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31.08.2023. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: (Elektron manba): URL:<http://president.uz/oz/lists/view/6637>
3. Философская энциклопедия. –М., 1969. –С.102.
4. Кон И.С. Социология личности. –М.: Политиздат, 1967. 22-51 б.
5. Иконникова С.Н., Кон И.С. Молодежь как социальная категория: Доклад на VII Международном социологическом конгрессе –М., 1970.
6. Громов И.А., Иконникова С.И., Лисовский В.Т. Молодежь в обществе // Человек и общество: Социальные проблемы молодежи. Уч. записки ЛГУ. Выш. ВИ. –Л., 1969. –С. 8.
7. Qarang: Молодежь в меняющемся обществе. UNICEF. Исследовательский центр «Инноченти». – Флоренция, Италия. 2000. №7. –С. 120-125.
8. Соловьев А.В. Молодежные организации в США: традиции и современность. (Электрон манба): <http://www.leviy.ru/news/2012/13/10>.
9. Saidov S.Sh. Ijtimoiy kapital – fuqarolik jamiyatining muhim mezon. –T., 2019. –B.55-56.
10. Молодежь в меняющемся обществе. UNICEF. Детский фонд ООН. Исследовательский центр «Инноченти». – Флоренция, Италия. 2000. №7. –С. 120-125.
11. Соловьев А.В. Молодежные организации в США: традиции и современность. (Электрон манба): <http://www.leviy.ru/news/2012/13/10>.
12. (Электрон манба): United Nations <https://www.un.org/ru/events/youthday/background.shtml>.
13. Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekiston Respublikasidagi vakilligi. (Elektron manba): <http://www.un.uz/uzb/pages/display/international-youth-day>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: (Elektron manba): URL:<http://prezident.uz/uz/lists/view/1371>.
15. Fuqarolik jamiyati institutlari yuksalish bosqichida. (Elektron manba): <http://uza.uz/oz/society/fu-arolik-zhamiyati-institutlari-yuksalish-bos-ichida-08-05-2018>.